

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KITOB MUTOLAASIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH**

**Nuriddinova Sabina Zafar qizi**  
**Jizzax davlat pedagogika instituti**  
**Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda kitobning ahamiyatini oshirish muhimdir. O'quvchilarni kitob mutolaasiga qiziqtirish yo'llari haqida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarni tarbiyalash omillarini oshirish lozim. Boshlang'ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, yangi bosqichga olib chiqish ustuvor vazifadir. O'quvchilarda kitob o'qish ishtiyoqini hosil qilish haqida ko'rsatmalar berilgan. O'quvchilarni ma'naviy yuksaltirishda kitob mutolasining ahamiyati.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy yuksalish, tarbiya, kutubxona, ertak, hikoya, barkamol avlod.

Malumki, Vazirlar mahkamasining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Bunga ko'ra yurtimizda barcha sohada kitobxonlikni targ'ib etish, turli xil loyihalar va tanlovlar ishlab chiqish, u orqali yoshlarda kitob mutolaasiga qiziqish uyg'otish maqsad qilib qo'yildi. Kitob o'qish inson dunyoqarashini kengaytirib, bilimni oshiradi, fikrlash qobiliyatini yuksaltiradi. Yosh avlod bizning vatanimizning ertangi egalari, ularning bilimli, aqlli, manan yetuk qilib tarbiyalashda ota-onalarining, ustozlarning o'rni beqiyosdir. „Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir“ deb bejizga aytilmagan bolalar yoshlikdan ota-onalarining aytgan alla, ertak, hikoyalarini maktabda boshlang'ich sinfdan o'zlari o'qishni boshlagan hikoya, ertaklar orqali kitob, kitob mutolaasi dunyosiga kirib boradilar. Shu sababli bu davrlar bolalarda

alohida e'tiborni talab qiladi. Bu davrda bolada poydevor shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq, ko'proq kompyuter o'yinlari, telefon o'ynashni yoqtirishadi, ota-onalari bolalarini kitob o'qishlarini xohlashdi. Ota-onalar bolalariga zamonaviy texnologiyalardan foydalanib audio ertaklar, rasmi kitoblar quyib berishlari maqsadga muvofiqdir.

Bolalarga kitob o'qitishda ularga qiziqarli bo'lgan kitoblarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlarga qiziqish bildirsa, hayvonlar hayoti haqida ertaklar o'qib berish. Vaqtni ayamadan kitob o'qib berilsa, bola ham asta-sekin o'zi muntazam mustaqil tarzda kitob o'qiy boshlaydi. Bolajonlarni tez-tez kutubxonaga olib borish lozim. Bolalarda doimiy ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish maqsadida, haftasiga hech bo'lmaganda bir marta kutubxonaga olib bormoq lozim. Kitoblarni birgalikda ko'rib chiqib, birgalikda tanlab, birgalikda o'qish samara beradi. Kitoblar haqida tez-tez suhbatlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bolalarni kitob o'qishga mehrini, g'ayratini oshirmoqchi bo'lsak, tez-tez ertaklar, hikoyalar aytib berish, umuman kitoblar va ularning mazmun-mohiyati haqida suhbatlashib turish lozim. Hayotda sodir bo'lgan haqiqiy voqealarni bolalarga ertak va hikoyalarga bog'lashga harakat qilish kerak. Bundan tashqari ma'lum bir kitobning kino, multfilm ko'rinishini birgalikda tomosha qilib, so'ng solishtirishi, kitob va kinodan olgan fikrlarini bilib olish mumkin. Bu bolalarda nafaqat kitob mutolaasiga balki, mushohada qilishga o'rgatadi, tahlil qilish qobiliyatini ham oshiradi. Bolalarga tinch xona qilib berish muhimdir. Bolalarni chalg'itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo'lgan o'zi uchun qulay bo'lgan xona yoki burchak tashkil qilib berish. Bolalar ota-onasidan namuna oladilar. Agar ota-onalar muntazam ravishda kitob mutolaa qilishsa, boshqa oila a'zolari bilan turli kitoblar to'g'risida tez-tez suhbatlashsa, kitobdan zavq olganligini namoyon qilsa, bolalarga o'rnak bo'lgan bo'ladi. Kitob o'qish asta-sekin bolalarni sevimli mashg'ulotiga aylanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rag'batlantirish, bunda ularning qiziqishlari yanada oshadi. Ota-onalar bolalarni bilan turli xil o'yinlar orqali kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin. Bolalarda o'zining kutubxonasini yaratishni oz bursada kitoblarni o'qib to'ldirib borishini

aytish yaxshi samara beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak, hikoya o'qib berish davomida uni eng qiziq joyida to'xtatilsa, ular keying voqealar nima bo'lishiga qiziqadi va bu kitob o'qishiga yaxshi samara beradi. Bir kitobni o'qigandan so'ng bolajonlar bilan rolga kirishib shu ertakni jonli ijro etish ham bir qancha qiziqish uyg'otadi. Bunda bola yana sahnada yangi qahramonlar yaratish uchun yangi kitoblar o'qishga kirishadi. Ertakdan so'ng ertak qahramonlarini suratlarini chizish bolada yangi tasavvurlarni uyg'otadi.

Unga o'qigan ertak kitoblaridan savol-javoblar o'tkazish hamda ularni sovg'alar, shirinliklar bilan rag'batlantirish yanada qiziqishiga sabab bo'ladi. Ertakni ma'lum bir joyiga kelganda to'xtatish va bolalarni davon ettirishga undash lozim. Bolalarga ko'ngilochar entsiklopediyalar sotib olish. Qancha vaqt o'qish kerakligini belgilash sekin-sekin qiziqishiga qarab vaqtni uzaytirish. Har bir bola asta-sekinlik bilan kitobga mehr qo'ya boshlaydi .Kitob mutolasi unga zavq bag'ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlari uchun metodik qo'llanma.) Sharq nashriyoti- 2019
2. Sh. Mirziyoyev „Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz’’T: O'zbekiston ,2017
3. Internet ma'lumotlari: [www.ziyocom.uz](http://www.ziyocom.uz)